

**O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARINING BADIY  
XUSUSIYATLARI**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasii  
assistenti*

**Imomqulova Gulchehra Norboboyevna**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va  
adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**O'ktamova Orasta Rustamjon qizi**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasi haqida atroflicha fikr yuritiladi. Bu asarni hech o'ylanmasdan onalar haqida deb baralla aytishimiz mumkin, chunki adib ushbu asarida onalar haqida ko'plab kichik-kichik hikoyalarni keltirib o'tadi. Bu asarni o'qir ekansiz hikoyada keltirilgan voqealar xuddi sizning o'tmishingizda bo'lib o'tayotganday tuyiladi. Asar butun dunyo onalari haqida ekanligi yaqqol aks etgan.*

*Buning isboti "Butun dunyo onalari bu asarni o'qishini xohlardim" degan jumla borligidadir.*

**Kalit so'zlar:** *ona siymosi, ona obrazi, alla, zamon, matonat, o'zbek ayoli, axloq.*

**Abstract:** *This article is based on the story "World Affairs" by Utkir Hoshimov. We can say that this work is about mothers, because the author emphasizes a lot about mothers in this work. As you read this, you feel as if things are happening in your past, and you read the book without being overwhelmed. There is a saying in this book that I want mothers all over the world to read this book. Through this sentence, it is clear that the work is about mothers all over the world.*

**Keywords:** *image of a mother, alla, time, fortitude, Uzbek woman, morality*

**Абстрактный:** *Статья написана по рассказу Уткира Хошимова "Мировые дела". Можно сказать, что это произведение о матерях, потому что автор очень много внимания уделяет матерям в этом произведении. Когда вы читаете это, вы чувствуете, как будто что-то происходит в вашем прошлом, и вы читаете книгу, не ошеломляясь. В этой книге есть высказывание, что я хочу, чтобы матери во всем мире прочитали эту книгу. Из этого предложения становится ясно, что работа посвящена матерям всего мира.*

**Ключевые слова:** *образ матери, алла, времени, мужества, узбекской женщины, нравственности*

Hali ham hayot ekanmiz avvalo, bir narsani to'laqonli ravishda anglashimiz zarur deb o'ylayman. Bizni dunyoga kelishimizga sababchi va hozirda shu darajaga yetishimizga qadar o'zlari yemay, ichmay, kiymay, issiqni issiq demasdan, sovuqni sovuq demasdan, bizning kelajagimiz uchun o'zlarini o'zliklaridan kecha olgan bu bizning ota-onamizdir. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub

bu qissa 2005-yilda “Sharq nashriyoti” tomonidan nashr etilgan. Ushbu asar to‘g‘risida nafaqat onalarimiz, balki butun xalq iliq fikrlarni bildirib kelmoqda. Sermahsul ijodkor Said Ahmad O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini shunday e‘tirof qilgan: “Dunyoning ishlari” qissasini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni eslab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofqa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi. [ “5-sinf adabiyot”: darslik, 2020, 134-bet ]. Abdulla Qahhor ham adibning “Cho‘l havosi” asaridan keyin, unga: “ Birdan lov etib yongan olovning kelajagi porloq bo‘ladi”, -deb ta‘rif bergani ma‘lum. [ “5-sinf adabiyot”: 2020, 132-bet].

O‘tkir Hoshimov asarlaridagi qahramonlariga o‘zgacha ruh va fazilat yuqtirgan. Adibning “Dunyoning ishlari” qissasi hech bir bo‘rttirishlarsiz onalar uchun o‘rnatilgan haykal bo‘ldi. Asardagi har bir ona timsoli benuqson va soddalik bilan tasvirlangan. Ijodkor asarning har bir hikoyasida ona timsoliga o‘zbekona ruh singdirgan.

Ushbu asardagi ona timsolining xarakter-xususiyatlari ijodkorning boshqa asarlaridagi qahramonlarga ko‘chdi. Chunki O‘tkir Hoshimov ushbu asarda o‘zbek onasini bor fazilatlarini bilan yaratgan edi.

Qissa kichik-kichik novellalardan tashkil topgan. Adibning “Oq oydin kechalar” hikoyasidagi ona har bir insonni qadrlaydigan, uning uchun qayg‘uradigan timsoldir. Voqealar davomida uning tanigan tanimagan insonlarga qayg‘urishi, mehribonlik ko‘rsatishi bunga dalildir. Ayniqsa, osmonda uchgan yulduzga qarab, bir bechoraning joni uzildi deya hayotda ko‘rmagan, tanimagan, bilmagan kishisiga joni achib gapirishi undagi insoniy fazilatlarining yana bir ko‘rinishidir:

Goho-goho osmonda birdan yulduz uchib qolardi. Hozirgina yonib turgan yulduz to‘satdan lop etardi-yu, ingichka, nurli iz qoldirib g‘oyib bo‘lardi. Onam cho‘chib tushardi:

-Essiz... Bir bechoraning joni uzildiya...

Yuragim shuv etib, onamning pinjiga kirardim. Ishqilib boshqa yulduz uchmasin! [“Dunyoning ishlari” qissasi kitobi, Toshkent-2005.]

Qissa tarkibidagi “Gilam paypoq” sarlavhali novella hajman kichik bo‘lsa-da, undagi ona obrazi xarakteri ancha keng. Asardagi ona obrazi fazilatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

birinchidan, soddalik, oqko‘ngillik;

ikkinchidan, har qanday qiyinchilikka, dardga bardosh bera oladigan matonat sohibasi;

uchinchidan, u farzandi uchun o‘z jonidan kechishi uning muhim fazilatlaridan biridir. Qisqa qilib aytganda, ijodkor shu kichik novellalar orqali onalarga xos ezgu xislatlarning barchasini jamlashga erishgan.

O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasida Sepkilli xola, Zebi xola, Bashorat xola, Acha xola, amma, Risolat opa, Habiba buvi, Hoji buvi singari obrazlarga murojaat



qiladi va ularni estetik markaz-ona siymosi atrofiga jamlaydi. E'tiborli jihati muallif ayollarning kasb-hunar nuqtai nazaridan rang-barangligi o'zbekona turmush tarzini to'laroq tasvirlash imkonini beradi. Asardagi har bir hikoya bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Chunki undagi ona va farzand muallifning o'zi hamda uning onasi. Asar onalarga bag'ishlagani bois uning xarakterini ochib berish uchun ijodkor farzand obrazidan foydalanib ish tutadi. Shuning uchun qissadagi hikoyalar ona va farzand bilan bog'liq holda kechadi. "Eng og'ir gunoh" novellasi ham shulardan biridir. Unda muallif urush voqealari va uning ayanchli oqibatlarini haqida so'z yuritadi. O'zining bolalik yillarini hikoya qilish orqali, avvalo, o'sha davrdagi turmush mashaqqatlarini tasvirlaydi. Undagi ona farzandining ayblarini kechiruvchi, shu bilan birga, unga gap tegmasligi uchun aybni o'z bo'yniga oluvchi timsoldir.

Har bir hikoyaning oxirida o'ziga xos xulosalar aks etadi. Yuqoridagi hikoyada esa muallif qilgan aybni deb, onasi aziyat chekkanligidan pushaymon bo'ladi. Har bir hikoya zamirida muayyan bir ibrat bor. Xususan, "Xiyonat" novellasida ona farzandini faqat halollikka, yaxshilik qilishga undaydi. Hayotimiz davomida juda ko'p insonlarga duch kelamiz. Ularning qaysilaridir do'stimiz, ba'zilar ikkiyuzlamachi insonlar, qaysidiri sevgan yorimiz. Ammo oradan vaqtlar o'tib kimdandir xiyonat ta'mini tortishimiz ehtimoldan holi emas ekan. Hikoyada esa onalar farzand uchun eng yaqin zot sifatida tasvirlanib, undan hech qachon xiyonat ko'rmasligimiz ta'kidlangan. Bunday tasvirlar, timsollar, albatta, o'quvchini chuqur o'ylashga va xulosa qilishga undaydi.

Shunday ekan, "Iltijo" qissaning eng so'nggi hikoyasidir. Adib ushbu asarida muhim bo'lgan voqeani eslaydi. Onasi hayot ekanligida ko'plab asarlar yozganligi, lekin onasiga atab bir asarini bag'ishlamaganligiga afsuslanadi. Ushbu parchadagi eng ta'sirli jumla: "Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim", degan so'zlari bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, nimaki ish qilmaylik ota-onani norizo qilgan odam hech qachon biron bir narsaga erisha olmaydi. Ona bor, olam bir; ona bor, odam bor; ona bor, Vatan bor deyishadi. Shunday ekan, har bir farzand vaqtida onasini qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarini bajarishi lozimligini eslatadi.

Ushbu asar o'zbek onalarining kechinmalari, his-tuyg'ulari, go'zal xislatlarini ochib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Hoshimov, O'.(2018). Dunyoning ishlari. Qissa.-T.: O'qituvchi
2. Hoshimov, O'.(2014). Yarim asr tarixi.-Toshkent.
3. Hoshimov, O'. Tanlangan asarlar. 2-jild.- Toshkent: Sharq, 2009.